

## ERUDITSIYA DARAJASIDAGI KADRLARNI TAYYORLASHDA PERSEPTIV QOBILIYATNING O‘RNI

Kildiyeva Madina Zaynabiddinovna  
Andijon davlat pedagogika instituti  
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası  
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti  
madinakildieva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19457507>

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda zamonaviy ta’lim tizimida eruditsiya darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari va ushbu jarayonda perseptiv qobiliyatlarning tutgan o‘rni tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot jarayonida eruditsiya tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda pedagogik faoliyatda perseptiv sezgirlikning axborotni kognitiv qayta ishlash va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishdagi ahamiyati o‘rganildi. Shuningdek, perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va usullari bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Eruditsiya, perseptiv qobiliyat, kompetentlik, malakali kadr, pedagogik sezgirlik, kognitiv integratsiya.*

So‘ngi yillarda ta’limni isloh etishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor kechiktirib bo‘lmas masalasi bu albatta malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Malakali kadr bu hozirgi zamon talablari asosida o‘z kasbiy kompetentligi, noodatiy vaziyat va muammolarga echim bera oladigan, kreativ fikrlash bilan birga ma’naviy-milliy tamoyillarga mos kadr bo‘lishi lozim. Malakali kadrlar salohiyatini baholash bir qator mezonlarga asoslanadi, jumladan, kasbiy ko‘nikma va bilim, ish tajribasi, ta’lim, muloqot qobiliyatlari, erishgan yutuqlari, til bilish darajasi, xorijda ta’lim olganligi, xalqaro sertifikatlarga egaligi, ilmiy unvon va darajasi, shuningdek, mehnat faoliyatida erishgan yutuqlari ham asos bo‘ladi. Shu munosabat bilan yurtimizda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan PF-158-sonli farmoniga binoan bir qator islohotlar olib borilmoqda.

Eruditsiya darajasidagi malakali kadrlarni tayyorlashda perseptiv qobiliyatning o‘rni o‘ziga xos. Avvalo eruditsiya o‘zi nima? - degan savolga javob topsak. **Eruditsiya** (lotincha *eruditio* - bilimdonlik) - bu turli sohalarda chuqur, bu turli sohalarda chuqur, har tomonlama bilimga ega bo‘lish, keng dunyoqarash va yuksak aql-zakovatni anglatadi. Erudit inson nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha, balki adabiyot, san’at, tarix va fan kabi boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda ham ma’lumotli bo‘ladi. Eruditsiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Keng qamrovli, tizimli bilimlar bazasiga ega bo‘lish;
2. Bir vaqtning o‘zida turli xil sohalarni tushunish;
3. Axborotni qabul qilish va qo‘llash qobiliyati;

Pedagogo G. Xasanboyeva nazariyasiga asoslanib, oliy ta’limda kadr tayyorlash jarayonida perseptiv qobiliyat - pedagogik texnika va mahoratning muhim qismidir. U o‘qituvchiga talabning psixik holatini sezish, individual xususiyatlarini hisobga olish va o‘quv jarayonini moslashtirish

imkonini beradi. Bu esa talabalarda intellektual rivojlanish va professional kompetensiyani oshiradi. A. Komilova fikricha, perseptiv qobiliyat individual yondashuv orqali talabalarning qobiliyatlarini ochib, ularni chuqur bilimli va ijodiy kadrlarga aylantiradi.”

Zamonaviy oliy ta’lim va kadrlar tayyorlashda eruditsiya darajasidagi mutaxassisni shakllantirish nafaqat fundamental bilimlarni o‘zlashtirishni, balki *perseptiv qobiliyatlarni* tizimli rivojlantirishni ham taqozo etadi. Perseptiv qobiliyatlar kadrning atrof-muhitdan kelayotgan murakkab axborot signallarini qabul qilish, ularni mavjud kognitiv tuzilmalar bilan integratsiya qilish va strategik qarorlar qabul qilish mahoratini belgilovchi asosiy omildir. Shu o‘rinda eruditsiya ega kadrlarni tayyorlashda perseptiv qobiliyatning o‘rni qay darajada ekanligini ko‘rib chiqsak. Perseptiv qobiliyat - bu o‘qituvchining o‘quvchilarning ichki dunyosiga kirib bora olish, ularning psixologik holatini seza olish va tushuna olish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Perseptiv qobiliyatni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimida muhim pedagogik zaruriyat hisoblanadi. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish orqali nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro tushunish yaxshilanadi, balki butun ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi. Perseptiv qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ularga ta’lim jarayonining interfaol shakllari, pedagogik amaliyot, psixologik-pedagogik treninglar, o‘zaro ta’sir va muloqot, sensor va perseptiv rivojlanishga qaratilgan mashqlar kiradi.

Eruditsiya darajasidagi mutaxassislarni shakllantirishda *perseptiv qobiliyat* shunchaki sezgi emas, balki *intellektual filtr* vazifasini o‘taydi. Erudit kadr ma’lumotlarni shunchaki eslab qolmasligi, balki perseptiv sezgirligi orqali turli fanlar o‘rtasidagi aloqalarni va qonuniyatlarni topa olishi lozim. Shu bilan birga, bilimlarni nazariyadan amaliyotga ko‘chirishda tashqi dunyoni aniq va obektiv idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-158-sonli farmoni.
2. Zokirov M. “Perseptiv qobiliyatlar - samarali o‘qitish kaliti” // Xalq ta’limi. - 2021. - №4. - B. 12-15.
3. Xasanboyeva G. B. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo‘llari va kommunikatsiya haqida tushuncha // Ilmiy maqola. – 2023.
4. Komilova A. S. Pedagogik qobiliyatlarning shaxs shakllanishidagi o‘rni // Ilmiy tadqiqot maqolasi. – Toshkent, 2023. – B. 45–60.
5. Zokirov M. A. Perseptiv qobiliyat va uning pedagogik faoliyatdagi o‘rni // Qo‘qon davlat universiteti ilmiy jurnali. – Qo‘qon, 2023–2024.